



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марксовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридиневич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


|  |    |
|--|----|
| <b>1. Diloram Babajanova</b><br>O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI<br>TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....                                   | 5  |
| <b>2. Ойбек Абдимўминов</b><br>БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ<br>ТАШАББУСЛАР.....  | 11 |
| <b>3. Sarvar Axmedov</b><br>XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI<br>HAMKORLIK ALOQALARI.....  | 18 |
| <b>4. Nafosat Botirova</b><br>ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....  | 23 |
| <b>5. Дмитрий Епифанов</b><br>АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ<br>АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....                       | 28 |
| <b>6. Istora Jo‘rayeva</b><br>O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....   | 31 |
| <b>7. Xamdani Matyakubov</b><br>TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM<br>VOHASI MISOLIDA).....                                     | 35 |
| <b>8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov</b><br>O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI<br>FAOLIYATI TARIXIDAN.....                       | 43 |
| <b>9. Sevara Pulatova</b><br>IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI<br>SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....                                | 48 |
| <b>10. Yoqubjon Tayronov</b><br>TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA<br>AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida)..... | 53 |
| <b>11. Dildora Tursunova</b><br>HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....  | 59 |
| <b>12. Солижон Қудратов</b><br>СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....  | 63 |



**Dildora Tursunova,**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Ijtimoiy gumanitar fanlarda masofaviy ta'lim  
kafedrasi o'qituvchisi

## HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH

**For citation:** Dildora Tursunova. PROVIDING WOMEN'S EMPLOYMENT ON THE BASIS OF CRAFT. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.59-62

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978672>

### ANNOTATSIYA

Hunarmandchikning taraqqiyoti tarixan barcha xalqlarda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Hunar turlari asoda vujudga kelgan mahsulotlar san'at darajasida e'tirof etilgan. Hunarmandchilikning turli sohalarida xotin-qizlarning faoliyati ham diqqatga sazovardir. Xalqimizda xotin-qizlar azaldan milliy hunar turlari o'rganib, ularga o'ziga xos joziba baxsh etib kelgan. Bugungi kunda ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida ular o'z faolliklarini hunarmand sifatida ham nanoyon qilib kelmoqda. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida xotin-qizlarning milliy hunarmandchilik sohalaridagi ishtiroki va hunar turlarini egallash asosida ularning bandligini ta'minlash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Xotin-qizlar hunarmandchiligi, milliy hunar turlari, hunarmand, hunarmandchik tadbirkorligi, hunarmandchilik faoliyati, hunarmandchilikni ommalashtirish.

---

**Дилдора Турсунова,**  
Преподаватель кафедры  
Дистанционное обучение по общественным и гуманитарным наукам  
Джизакского государственного педагогического университета

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН НА ОСНОВЕ РЕМЕСЛА

### АННОТАЦИЯ

Развитие ремесла исторически имело особое значение у всех народов. Изделия, созданные на основе ремесел, признаются искусством. Заслуживает внимания и деятельность женщин в различных областях ремесел. В нашем народе женщины испокон веков обучались национальным ремеслам, придавая им особый шарм. И сегодня, в ходе реформ, которые осуществляются в нашей стране, они также проявляют свою активность как ремесленники. В данной статье говорится об участии женщин в отечественном ремесленном производстве в годы независимости и обеспечении их занятости на основе освоения различных профессий.

**Ключевые слова:** женские промыслы, народные промыслы, ремесленник, ремесленное предпринимательство, ремесленная деятельность, популяризация ремесел.

**Dildora Tursunova,**  
Lecturer of the Department of  
Distance learning in social and humanitarian sciences  
Jizzakh State Pedagogical University

## PROVIDING WOMEN'S EMPLOYMENT ON THE BASIS OF CRAFT

### ABSTRACT

The development of craftsmanship has historically had a special significance in all nations. Products created on the basis of crafts are recognized as art. The activity of women in various fields of handicrafts is also worthy of attention. In our nation, women have been learning national crafts from time immemorial, giving them a special charm. Even today, in the course of the reforms that are being implemented in our country, they are also showing their activity as artisans. This article talks about the participation of women in the national craft industry during the years of independence and ensuring their employment on the basis of mastering various trades.

**Index Terms:** Women's crafts, national crafts, craftsman, craft entrepreneurship, craft activities, popularization of crafts.

### **Dolzarbligi:**

Tarixan ijodkor, yangiliklarga ishtiyoqi yuqori bo'lgan xotin-qizlar milliy hunarmandchilik sohalarida ham o'z mavqeiga ega. YUNESKOning Madaniy rang-baranglik bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, Jahon Hunarmandlar Kengashi (World Craft Council), "Tinchlik, taraqqiyot va tenglik" shioridagi Butunjahon xotin-qizlarining konferensiyasida doirasida amalga oshirilayotdan xalqaro miqyosdagi tadbirlar ahamiyatlidir.

Bugun O'zbekistonda xotin-qizlarning xalqimiz tarixi, qadriyatlari, urf-odat va an'alarini o'zida aks ettirgan milliy hunarmandchilik sohasidagi faoliyati ham diqqatga sazovardir. Bu jarayonda xotin-qizlarning milliy hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishdagi ishtirokini ilmiy tadqiq qilish, holisona o'rganish taqazo qilinadi. Prezidentimizning 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539 sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda 2023-yil 12 inyundagi PF-91 sonli "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni[1.1.] hamda milliy qadriyatlarimizning betatror na'munalari bo'lgan hunarmandchilik sohalarida xotin-qizlarning faoliyatini rag'batlantirishga qaratildi.

### **Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq xotin-qizlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va iqtisodiy islohatlarda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmogda. Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning milliy hunarmandchilikni rivojlantirishdagi o'rni xotin-qizlarning hunarmandchilik sohalaridagi faoliyatlarini aks ettirib, ushbu masala tarixchi, pedagog, iqtisodchi va sotsiologlar tomonidan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy-ma'naviy taraqqiyotga erishish jarayonida xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurishdagi o'rnini, ularning bandligini hunarmandchilik sohalarini orqali tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etdi[2.38]. Mustaqillik yillarida tarix, etnografiya, sanatsunoslik fanlari doirasida tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan hunarmandchilik tarixiga xolis yondashilganligi va keng ko'lamli manbalar, adabiyotlarga tayanilganligi bilan muhimdir. Tadqiqotchilar M.Alimova, O'roqov, S.Davlatova, F.To'xtamishva, A.Yarqulov, N.Hasanova, R.Abdullayeva, M.Annayeva, S.Axrarovalar[3.12.] tadqiqotlarida milliy hunarmandchilik sohalarini rivojlantirishda xotin-qizlar ishtiroki, ularni hunarmandchilik asosida bandligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratgan. Hunarmandchilik tarixi, xotin-qizlar faoliyat olib borayotgan hunar turlari, hunarmandchilik buyumlarini yaratish, xom ashyolar, hunarmand xotin-qizlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi masalalarini Tadqiq qilishda qiyosiy tahlil, hududiy-

geografik statistika, fanlararo yondashuv va kompleks tahlil hamda muammoviy yondashuv kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Tadqiqot natijalari:**

Xotin-qizlar qizlarni orasida tadbirkorlikni ayniqsa, ayollar o'rtasida qandolatchilikni, tikuvchilikni, to'quvchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda hozirgi paytda xotin-qizlarning asosiy qismi o'qimishli, tabiatdan faoldirlar. Ular orasida akademiklar, olimlar, o'z sohasinig yirik mutaxassislari ko'pchilikni tashkil qilmoqda.[4.123.] Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, birgina 2023 yilda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 262,2 ming nafar xotin-qizga 4,5 trillion so'm miqdorida kredit, ishsiz va ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turuvchi 27 mingdan ziyod xotin-qizga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zini o'zi band qilish uchun 118,5 milliard so'm subsidiya ajratilgan. Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha 60 soatlik malaka oshirish kurslari tashkil etilib, unda 319 nafar xotin-qiz o'qitilgan. Yurtimizda so'nggi yillarda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar va ayollarning hunarmandchilik bilan shug'ullanishiga keng imkoniyat yaratildi. O'zbekistonda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish, himoyalash va qo'llab-quvvatlash uchun institutsional asos shakllandi va rivojlandi. Buni hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan Respublika xalq hunarmandlari va musavvirlari «Hunarmand» uyushmasi, Respublika «Tadbirkor ayol» uyushmasi, Respublika «Usto» birlashmasi, «Mahalla» jamoat fondi va ularning viloyatlardagi bo'limlari faoliyatlarida kuzatish mumkin. Ushbu institutlar: xalq hunarmandchilik ustalarining faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnika uskunalari bilan ta'minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishga, (shu jumladan eksportga) ko'mak berishda; mamlakat ichkarisi va horijda hunarmand ustalarining buyumlarini reklama qilish uchun fotosuratlar, kataloglar chiqarish, ko'rgazmalar tashkil etishda; xalq amaliy san'ati namunalari hamda an'alarini saqlab qolish, yuksak mahorat bilan badiiy buyumlarni tayyorlashni yoshlarga singdirishda hunarmandlarga katta ko'mak bermoqda.[5.156.] Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi «Hunarmand» uyushmasi a'zolarining 46 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Qayd etilishicha, o'tgan yilda hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi doirasida 91 534 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Ularning 17 565 nafari usta hunarmand, 73 969 nafari shogirdlar hissasiga to'g'ri keladi. Ularning 68 foizi ayollar hisobiga, 44 foizi esa yoshlar hissasiga to'g'ri keldi. So'nggi yillarda O'zbekistonda hunarmandchilik jadal rivojlanib bormoqda.

Hunarmandchilikning barcha turlarida ham ayollar uchrayvermaydi. Masalan, ko'ncilik, temirchilik, aravasoqlik, duradgorlik, uy-joy qurish kabi sohalarda tadbirkor ayollar uchramaydi. Shuning uchun ayollarga mos keladigan hunarmandchilik sifatida, asosan, to'quvchilik, do'ppichilik kabilarni aytish lozim. Milliy iqtisodiyotimizni barqaror yuksaltirish, yurtimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish borasidagi katta xizmatlari, sohaga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlari yaratish, aholi farovonligini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi, shuningdek, biznesda erishayotgan amaliy natijalari hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun «Faol tadbirkor» ko'krak nishoni bilan bir nechta hunarmand xotin-qizlarimiz taqdirlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Besh muhim tashabbus doirasida chekka hududlarda tikuvchilik sexlari tashkil etilib, 10 ming nafar ayollar bandligi ta'minlandi.[6.212.] 2019-2024 yillarda O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchixonasi va vakolatxonalari ko'magida MDH, Yevropa va AQSH davlatlariga hunarmandchilikning kulolchilik, kashtachilik, zardo'zlik, yog'och o'yimakorligi, gilamchilik va qo'lda gazlama to'qish yo'nalishlari bo'yicha jami 66 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi. Hunarmandlarning xorijga chiqishiga yaratilgan sharoitlar natijasida jami 600 nafarga yaqin hunarmand 56 ta xorijiy tadbirlarda ishtirok etdi. Hozirgi kunda hunarmandchilik mahsulotlarini chetga eksport qilish va hunarmandlar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2018 yilda dunyoning 20 dan ortiq davlatida (Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Italiya, Angliya, Koreya, Malayziya, Ozarboyjon, Latviya, Finlyandiya,

Hindiston, Fransiya, Gretsiya, Turkmaniston, Eron, AQSh, Ukraina, Turkiya, Xitoy, Ispaniya) 113ta ko'rgazma va yarmarka o'tkazildi.

#### **Xulosa:**

Milliy hunarmandchilik zamonlar osha go'zallik, tarix, g'urur va o'zlikni anglash, ulkan meros va jamiyat an'analari manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda. Darhaqiqat, hunarmand kishi hech qachon kam bo'lmaydi. Ular faoliyati mustaqillik yaratgan imkoniyatlar tufayli davlatimiz tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi xalqimizning boy madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shmoqda, yangi turdagi hunarmandchilik mahsulotlari bilan xalqaro miqyosdagi turli festivallarda munosib ishtirok etmoqda. Xulosa sifatida quyidagilarni bayon etish mumkin: quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash masalalarini, ularning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlovchi dasturlarni keng targ'ib qilish;

Yurtimizdagi Hunarmandchilik markazlari faoliyatini rivojlantirish orqali xotin-qizlarning hunar o'rganishga qiziqishlarini rag'batlantirib borish;

Hunari orqali yuyuelarga erishgan faol hunarmand xotin-qizlarning tajribalarini ommalashtirish, ularning xalqaro ko'rgazma va festivallardagi ishtirokini rag'batlantirish.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" 12.06.2023 yildagi PF-91-son. <https://lex.uz/docs/-6490321>
2. Ўзбекистон санъати (1991—2001 йиллар) "ШАРҚ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. Тошкент – 2001. б-38.
3. Axrorova S. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri. Falsafa fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. Toshkent – 2023. b-23.
4. Primov S. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarga ta'lim tizimida yaratilayotgan imkoniyatlar. Talqin va tadqiqotlar. №4 2022. 123-b.
5. Mo'minova M. Hunarmand uyushmasi – milliy hunarmandchilik siymosi. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA <https://conferencea.org> Dec. 28th 2022
6. Axrorova S. Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021. b- 212.
7. Abduaxatova M. Iqtisodiyotning barqaror o'sishida, ayollar tadbirkorligi xususan innovatsion tadbirkorlikning o'rni // Central Asian Journal of Academic Research. Volume 2, Issue 11, November 2024. 98.
8. Egamberdiyeva N. M., Abdurashidov A. A. Milliy hunarmandchilik vositasida yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Monografiya. Toshkent – 2022.
9. Latipova G. Yangi davrda O'zbekistonda xotin-qizlar rolining rivojlanish bosqichlari // "Scientific progress" Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5).
10. Umarkulova K. Yangi O'zbekistonda lider ayollarning faoliyatini yanada barqarorlashtirish muammolari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022. b-44-49.
11. Yusupov M. Boshqaruvda xotin-qizlarning o'rni // "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnali. 2024-yil №1. b-161.
12. Ro'ziyeva G. O'zbekistonda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish loyihalari // Journal of new century innovations <http://www.newjournal.org/> Volume-27\_Issue-6\_April\_2023.

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000